

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

SAYIDOV QAXRAMON BEKTURDIYEVICH

**SHAHAR URBANIZATSIYASI VA UNING IJTIMOYIY-MADANIY
RIVOJLANISHIGA TA'SIRI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO`YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on philosophical sciences**

Sayidov Qaxramon Bekturdiyevich

Shahar urbanizatsiyasi va uning ijtimoiy-madaniy
rivojlanishiga ta’siri..... 5

Сайидов Кахрамон Бектурдиевич

Городская урбанизация и ее влияние на
социокультурное развитие 23

Saidov Kahramon Bekturdievich

Urbanization and its impact on socio-cultural
development 43

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works.....48

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

SAYIDOV QAXRAMON BEKTURDIYEVICH

**SHAHAR URBANIZATSIYASI VA UNING IJTIMOYIY-MADANIY
RIVOJLANISHIGA TA’SIRI**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO`YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Fal757 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xajieva Maqsuda Sultanovna
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Choriyev Sanjarbek Anvarovich
falsafa fanlari doktori, professor

Hakimov Nazar Hakimovich,
falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil “4” iyul soat 14⁰⁰” dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (321 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil “19” iyun kuni tarqatildi.
(2023 yil “19” iyun” dagi 10 raqamli reyestr bayonnomasi.)



Navro‘zova G. N.
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

Sharipov A. Z.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

Salomova H. Yu.
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda kechayotgan globallashuv va modernizatsiya jarayonlari xalqlarning ijtimoiy taraqqiyotiga, turmush madaniyati va urbanizatsion rivojlanishiga ta'sir ko'rsatib, shaharlashish tendentsiyasi va urbanizatsiyalashuvning global voqelikka, muammoga aylanganini namoyon etmoqda. Taraqqiyotning hozirgi bosqichida kishilik jamiyatini sivilizatsion va urbanizatsion rivojlanish tomon yetaklagan ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarni, bu jarayonning etimologik mohiyatini, zamonaviylik, urbanizatsion rivojlanish, submadaniyat yaratishga intilish urbanizatsion rivojlanish modeli bo'lib shakllanmoqda. Shu nuqtai nazardan insonning ijtimoiy-madaniy shakllanishi va rivojlanishi, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarni to'la qondirishga qaratilgan aglomeratsiyalarni, urbanizatsiyaning inson manfaatlariga xizmat qilishga qaratilgan gumanistik funksiyalarining ijtimoiy-falsafiy xususiyatlarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani va yetakchi ilmiy tadqiqot markazlari, institutlarida urbanizatsiyaning sivilizatsiyadagi o'rnini, aholi turmush madaniyatining shahar muhiti, arxitekturasi, estetikasi va xizmatlar infratuzilmalari bilan bog'liqligi masalalariga oid fundamental va amaliy innovatsion tadqiqotlar olib borilmoqda. Globallashuv va axborotlashgan jamiyat sharoitida sivilizatsiya va urbanizatsiyaning umumiy qonuniyatlari hamda umuminsoniy taraqqiyotni ifodalovchi funksional xususiyatlari insonning ijtimoiy-madaniy shakllanishi va rivojlanishida muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu bois ratsional va gumanistik yondashuv asosida urbanizatsiyani inson manfaatlariga xizmat qildirish, mehnat taqsimoti, ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish, etnomadaniy qonuniyatlarini insoniy lashtirish, qulaylashtirish, nafislashtirish kabi umumijtimoiy va hududiy-lokal funksiyalarini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Mamlakatimizda "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" asosida shaharlar qiyofasini zamonaviylashtirish, yangi uy-joylar barpo etish, xizmatlar sohasini rivojlantirish hamda ijtimoiy-madaniy muhitni shakllantirish borasida islohotlar amaliyotga keng tadbiiq etilmoqda. "Bu yo'nalishdagi muhim vazifamiz mamlakatimiz urbanizatsiya darajasini 2025 yilga qadar 40 foizga yetkazish, butun aholining, jumladan, kam ta'minlangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarning bazaviy zaxiralardan foydalanishi uchun qulay iqtisodiy va moliyaviy shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Aholimiz uchun olis-olis qishloqlarda ham shahardagidan kam bo'lmagan yashash sharoitlari yaratish – muhim vazifamizdir. Aholini, eng avvalo, ehtiyojmand va yosh oilalarni arzon va zamonaviy, kulay uy-joy bilan ta'minlash, aholi uchun yashash joyi atrofida ish joylari yaratish, aholining ichimlik suvi, elektr energiyasidan foydalanish imkoniyatini yanada oshirish yo'lidagi ishlarimizni izchil davom ettiramiz"¹. Bu vazifalarni samarali amalga oshirishda urbanizatsiyani ma'naviy voqelik sifatida idrok etish, uning submadaniyat yaratish, identlikni yo'qotmaslik kabi ijtimoiy-madaniy taraqqiyotga oid xususiyatlarini asoslab berish muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Тошкент: "O'zbekiston", 2021.- Б.206

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019 yil 10 yanvardagi PF-5621-son “Iqtisodiy rivojlanish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019 yil 10 yanvardagi PF-5623-son “Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020 yil 22 iyundagi PF-6012-son “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2021 yil 9 dekabrda PF-32-son “Yangi O‘zbekiston” massivlarini qurish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2018 yil 28 noyabrda PQ-4038-son “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019 yil 31 iyulda PQ-4409-son “Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki ishtirokida “O‘rta shaharlarni kompleks rivojlantirish” loyihasini amalga oshirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarorlari shuningdek Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 21 fevralda 83-son “2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori hamda sohaga oid boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Muammoga oid izlanishlarning ko‘lami keng bo‘lib, ular ichida muammoning falsafiy, ilmiy va empirik jihatlariga oid fundamental tadqiqotlar Platon, Aristotel, E.Dyurkgeym, G.Zimmel, E.Taylor, T.N.Burdina., A.Toynbi, O.Shpengler, Aleksis de Tokvil, L.Mamford, L.Fevr, B.Uilson, G.M.Lappo, P.Sorokin, J.Bodriyyar, S.Xantington kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan. Ular G‘arb madaniyati va sivilizatsiyani o‘rganishga qaratilgan bo‘lsa-da, chiqargan ilmiy xulosalaridagi umuminsoniy, umumilliy ahamiyatga ega fundamental umumlashmalar, tavsiyalar va g‘oyalar urbanizatsiya va sivilizatsiya haqidagi ilmiy-falsafiy qarashlar va kontseptsiyalarni ifoda etgan².

² Афлотун (Платон). Конунлар. / Тарж.: Урфон Отажон. – Тошкент: Янги Аср Авлоди, 2002. – 450 б.; Аристотел. Политика. / Перев.: С.А. Жебелев. – Москва: Издательство АСТ, 2022. – 384 стр.; Дюркгейм Э. Социология. Ее предмет, метод, предназначение. – Москва: Терра, 2008. – 400 стр.; Зиммел Г. Философия труда. Как возможно общество? Общение. Пример чистой, или формальной, социологии. – Москва : Директ-Медиа, 2007. – С.95.; Тайлор Э. Первобытная культура. -Москва: Политиздат, 1989; - С.576.; Бурдина Т.Н. Проблемы универсалий в философии всеединства в философии Владимира Сергеевича Соловьева. Монография. -Кишенёв: КГСХА,2011. –С.23-27.; Тойнби А. Постигжение истории. -Москва: Прогресс, 1991. – С.5-6.; Шпенглер О. Закат Европы. -Новосибирск: ВО “Наука”, 1993. - С. 302-303.; Алексис де Токвил. Демократия в Америке. -Москва: Прогресс, 1988. –Р.234- 238.; Mamford L. The City in History: Its Origins, Its Transformations, and Its Prospects. - New York, 1961, -Р.494.; Февр Л. Цивилизация: эволюция слова и группы идей. Бои за историю. - Москва: “Наука”, 1991. –С.48.; Уилсон Б. Метрополис. Город как величайшее достижение цивилизации.--Москва: “Литрес”, 2022. – С.38.; Лаппо Г.М. Города на пути в будущее. Москва: “Мысль”, 1987. – С.64.; Сорокин П. Человек. Цивилизация. Общество. -Москва: “Республика”, 1992. –

Muammoga oid ilmiy tadqiqotlar MDH olimlari tomonidan ham amalga oshirib kelingan. Bu o‘rinda urbanizatsiya va shahar muammolarining ayrim jihatlari A.F.Losev, E.V.Sokolov, M.S.Kogan, A.V.Ikonnikov, V.L.Glazichev, Z.N.Yargina, A.M.Lola kabi olimlar chuqur tadqiq etishganin qayd etish zarur³.

O‘zbekistonda urbanizatsion rivojlanish va uning ijtimoiy-madaniy taraqqiyotdagi ahamiyati E.V.Rtveladze, Yu.Buryakov, D.Ziyayev, A.Soliyev, Sh.Ergashov, ilmiy-falsafiy masalalarini M.Abdullayev, V.Alimasov, O.G‘aybullayev, M.Hajiyeva kabilar o‘rgangan. Ular ichida D.Ziyaev o‘tgan asrda O‘zbekistonda ro‘y bergan urbanizatsiya jarayonlarini tarixiy tadqiq etgan. Shahar madaniyatidagi rivojlanish, uning tarqalishi va inson tafakkuriga ta’siri masalalari D.Norqulov, N.Hakimov, S.Choriyev, A.Berdimuratova, Q.Nazarov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan⁴.

Tadqiqotni olib borish jarayonida yuqorida qayd etilgan va boshqa o‘zbek, jahon olimlarning ilmiy ishlari nazariy-metodologik asos sifatida xizmat qildi. Dissertatsiyada ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlardan farqli ravishda, shahar madaniyatidagi rivojlanish, uning tarqalishi va qishloq hayotiga ta’siri masalalariga, urbanizatsion rivojlanishning xorijiy va mintaqaviy tajribalarini tahlil etish asosida Yangi O‘zbekistonda urbanizatsiyani rivojlantirish kontseptsiyasining milliy yuksalishdagi ahamiyatini ochib berish va ijtimoiy-madaniy taraqqiyotdagi ahamiyatini asoslab berishga diqqat qaratilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Urganch davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 2.4-bandi “Ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va ilmiy salohiyatini oshirishga yo‘naltirilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi” (2020-2025 yy) yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi shahar urbanizatsiyasining ijtimoiy-madaniy taraqqiyotga ta’sirini asoslab berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

C.406.; Бодрийяр Ж. Город и ненависть. Лекция. // Электронная публикация: Центр гуманитарных технологий. — 15.08.2006.; Хантингтон С. Столкновение цивилизаций; [пер. с англ. Т. Велимеева]. — М. : Издательство АСТ, 2022. -.640 стр.

³ Лосев А.Ф. Очерки античной эстетики и мифологии. Москва: “Республика”, 1997.-С.234.; Соколов Э.В. Урбанистика и архитектура городской среды. Учебник. Под ред. .-Москва: “Академия”, 2014. -С.368.; Коган М.С. Философия культуры. -Санкт Петербург: “Лань”, 1996. – 448 с.; Иконников А.В. Пространство и форма в архитектуре и градостроительстве. -Москва: “Архитектура и градостроительство”, 2006. -С.17-23.; Глазичев В.Л. Урбанистика. -Москва: “Европа”, 2008. – С. 188- 200.; Яргина З.Н. Основы теории градостроительства.-Москва; “Наука”, 1986. – С. 329.; Лола А.М. Основы градоведения и теории города.-Москва: 2005. – 344 стр.

⁴ Ртвеладзе Э.В., Буряков Ю. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. - Ташкент: Фан, 1982. – С.85.; Зияев Д. Ўзбекистон шаҳарлари XIX асрнинг иккинчи ярми XX асрнинг бошларида. - Тошкент: “Янги нашр”, 2017. –Б.8.; Солиев А. Проблемы расселения и урбанизации в республиках Средней Азии. -Ташкент: «Фан», 1991. -С.84.; Эргашов Ш. Қадимги цивилизациялар -Тошкент: “Ўзбекистон”, 2016. –С.304.; Абдуллаев М. Маданиятшунослик асослари. Ўқув қўлланма, - Фарғона, ФДУ, 1997. –Б. 4-5.; Алимасов В. Фалсафа ёхуд фикрлаш санъати. -Тошкент: Янги аср авлоди, 2008. – Б.256.; G‘aybullaev O. Milliy goya tarixi va nazariyasi Darslik. -Samarqand, 2019. – 576 b.; Hajiyeva M. Globallashuv asoslari. Darslik. -Urganch, 2020. –В.228.; Норкулов Д. Фуқаролик жамияти ва ижтимоий онгда трансформация жараёнлари. – Тошкент: Наврўз, 2015. – 178 б.; Ҳакимов Н. Стратегия развития страны. Гражданское общество – Ташкент, 2021. –С.13-25.; Чориев С. Индивидуализм – аср балоси ва жамиятимиз тараққиётига хавф сифатида // Фалсафа ва ҳуқуқ, 2021, #1.- Б. 39-43.; Berdimuratova A. Logika 2018. – 256 b; Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. Икки томлик. - Тошкент: Ўзб.файл. миллий жам. нашр, 2019.

urbanizatsiya va bu jarayon bilan bog‘liq tushunchalarning ilmiy va ijtimoiy-falsafiy talqinlarini hamda ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixida shakllangan g‘oya va qarashlarni tadqiq etish;

urbanizatsiya va sivilizatsiyaning qonuniyatlarini, umumijtimoiy va hududiy-lokal funktsiyalarini ijtimoiy-falsafiy tahlil etish;

urbanizatsion rivojlanishning xorijiy va mintaqaviy tajribalari asosida ijtimoiy-madaniy taraqqiyotdagi ahamiyatini asoslab berish;

Yangi O‘zbekistonda urbanizatsiyani rivojlantirish kontsepsiyasining innovatsion mohiyatini, uning hududlarni va zamonaviy shahar madaniyatini yanada yuksaltirishdagi ahamiyatini ochib berish;

“Obod mahalla”, “Obod qishloq” va “Yangi O‘zbekiston massivlari” davlat dasturlarining urbanizatsion rivojlanish hamda aglomeratsiyalarni shakllantirishdagi rolini asoslab berishdan iborat.

Tadqiqotning ob’ekti sifatida shaharlarni kompleks rivojlantirish bo‘yicha urbanizatsiya jarayonlari hamda sivilizatsiya va urbanizatsiyaning ijtimoiy madaniy taraqqiyotga ta’siri tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti urbanizatsiya jarayonini jahon tendensiyalariga muvofiqlashtirish, faollashtirish, aholi farovonligini o‘sishi va barqaror rivojlanishining omil sifatida ijtimoiy-madaniy rivojlanishdagi o‘rnini asoslab berishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, tizimli funktsional yondashuv, fanlararo diskurs, qiyosiy tahlil, kontent analiz va sotsiodinamik tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

urbanizatsiyaning ijtimoiy-madaniy, jug‘rofiy, etnosotsial, boshqarish, demografiya va migratsiya, aglomeratsiya kabi ilmiy talqinlari, sivilizatsiya bilan bog‘liq mehnat taqsimoti, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanganligi, o‘ziga xos infratuzilmaning shakllangani va aglomeratsiyalarning vujudga kelishi, umumiy til va etnomadaniy qonuniyatlarning insoniylashtirish, madaniylashtirish, qulaylashtirish, nafosatlashtirish kabi umumijtimoiy va hududiy-lokal funktsiyalari asoslangan;

urbanizatsion rivojlanishning zamonaviylik, submadaniyat yaratish, gigantograd poytaxt va yirik shaharlar qurish kabi xorijiy rivojlanish modeli hamda shahar madaniyatining differensial xususiyatlari, ma’naviy voqelik sifatida idrok etish, o‘zini asrash, identligini yo‘qotmaslik kabi multikulturistik mintaqaviy tajribalari asosida ijtimoiy-madaniy taraqqiyotga oid xususiyatlari ochib berilgan;

Yangi O‘zbekistonda urbanizatsiyani rivojlantirish konsepsiyasining shahar madaniyatini, shaharga xos infratuzilma yaratishda ijtimoiy-iqtisodiy, demografik, madaniy, xizmatlar ko‘rsatish kabi paradigmal tamoyillari, hududlarni kompleks rivojlantirishda uy-joy siyosatini amalga oshirish, ish bilan ta’minlash, texnoparklar tashkil etish, servis sohalarini rivojlantirish, ijtimoiy-ishbilarmonlik zonalar hududlarini kengaytirish kabi yo‘nalishlari takomillashtirilgan;

“Obod mahalla”, “Obod qishloq”, “Yangi Namangan”, “Yangi Andijon” va “Yangi O‘zbekiston” massivlarining urbanizatsion rivojlanishga hamda aglomeratsiyalarni shakllantirish mamlakatni sivilizatsion va urbanizatsion

yuksaltirish, uni ijtimoiy-madaniy rivojlanishning drayveriga aylantirish, keng qamrovli (siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, ma'rifiy, qurilish, servis) kabi kompleks chora-tadbirlarning gumanistik va ratsional taraqqiyot asoslari aniqlashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

urbanizatsiyani rivojlantirish ilg'or davlatlar qatoriga chiqishga intilayotgan Yangi O'zbekistonning strategik vazifalaridan biri sifatida inson qadrini ulug'lash, ma'naviy makonni barpo etish kabi atropogumanistik maqsadlarni ifoda etishi ochib berilgan;

shahar urbanizatsiyasining ijtimoiy-madaniy rivojlanishga ko'rsatadigan ta'siri qishloq hayot tarzidagi o'zgarishlar, mehnatning mexanizatsiyalashtirilayotgani, transport xizmatlarining kengayayotgani, ichki migratsiya, demografik o'sishlar dinamikasi orqali asoslab berilgan;

shaharlashtirish siyosatining pozitiv ta'siri tufayli qishloq va ovullarning tashqi qiyofasi, aholi turmushi, kishilarning o'z hayoti va faoliyatiga munosabatlari yangilanayotgani milliy tajribalar asosida tahlil etilib, bu sohani takomillashtirishga oid taklif-tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullarining to'g'ri tanlanganligi va yondashuvlar rasmiy manbalardan olinganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari yuzasidan chiqarilgan xulosalar, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy natijalari. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqotdagi yondashuvlar va chiqarilgan xulosalardan urbanizatsiya jarayonlarini tartibga solish, demografik tendensiyalarni tahlil qilish, "o'sish polyuslari"ni aniqlashga qaratilgan qator institutsional va tashkiliy chora-tadbirlarni belgilashda, jahon amaliyotini hisobga olgan holda urbanizatsiya va aglomeratsiya tizimini kompleks rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni olib borishda shuningdek, xalqaro talablarga muvofiq urbanizatsiya darajasini hisoblab chiqish metodologiyasini takomillashtirishda hamda muammoga oid ma'ruzalar tayyorlash va qishloq urbanizatsiyasini rivojlantirish parametrlarini ishlab chiqishda nazariy-metodologik asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shaharsozlik, shaharni loyihalashtirish, shahar estetikasini shakllantirish, aholiga xizmat ko'rsatish, turmush madaniyatini yuksaltirish, qishloq infratuzilmasini yaratish jarayonlarida, shuningdek, 2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasida urbanizatsiyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishda, suburbanizatsiya yo'li bilan yo'ldosh shaharlarning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish, O'zbekiston Respublikasida urbanizatsiyani tartibga solishni ta'minlash bo'yicha "Yo'l xarita"da belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash va ommaviy axborot vositalarida urbanizatsiya masalalariga oid mediamateriallar tayyorlash, xalqaro va milliy ilmiy anjumanlar, simpoziumlar, konferensiyalar,

seminarlar va boshqa tadbirlarni tashkil etishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Shahar urbanizatsiyasining ijtimoiy-madaniy rivojlanishga ta'sirini tadqiq etish bo'yicha olingan xulosalar asosida:

urbanizatsiyaning ijtimoiy-madaniy, jug'rofiy, etnosotsial, boshqarish, demografiya va migratsiya, aglomeratsiya kabi ilmiy talqinlari, sivilizatsiya bilan bog'liq mehnat taqsimoti, ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanganligi, o'ziga xos infratuzilmaning shakllangani va aglomeratsiyalarning vujudga kelishi, umumiy til va etnomadaniy qonuniyatlarning insoniylashtirish, madaniylashtirish, qulaylashtirish, nafaslashtirish kabi umumijtimoiy va hududiy-lokal funksiyalari oid xulosalaridan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Xorazm Ma'mun akademiyasida bajarilgan "I-FA-2019-25 Xorazm shaharlarining tarixi, madaniy meroslari, obidalari va san'at asarlarining tadqiqotlari asosida SMART texnologiyalarni yaratish" (2019-2020 yy) amaliy loyihalarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Xorazm Ma'mun akademiyasining 2022 yil 22 sentyabrdagi 140/2-22-son ma'lumotnomasi). Natijada, urbanizatsiyaning ilmiy talqinlari, sivilizatsiya bilan bog'liq qonuniyatlari, umumijtimoiy va hududiy-lokal funksiyalarini aniqlashda muhim manba bo'lib hamda loyihaning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini ochib berishga xizmat qilgan;

urbanizatsion rivojlanishning zamonaviylik, submadaniyat yaratish, gigantograd poytaxt va yirik shaharlar qurish kabi xorijiy rivojlanish modeli hamda shahar madaniyatining differensial xususiyatlari, ma'naviy voqelik sifatida idrok etish, o'zini asrash, identligini yo'qotmaslik kabi multikulturistik mintaqaviy tajribalari asosida ijtimoiy-madaniy taraqqiyotga oid xususiyatlariga oid tahlillar va ilmiy xulosalaridan O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanalining 2021-2022 yillarda efirga uzatilgan "Millat va ma'naviyat", "O'zbekiston yoshlari", "Ta'lim va taraqqiyot" dasturlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanali davlat muassasasining 2022 yil 21 oktyabrdagi 04-36-1771-son ma'lumotnomasi). Natijada, jamiyat a'zolari, xususan, yoshlarda estetik madaniyatni shakllantirish hamda madaniyatni rivojlanishi bilan bog'liq dasturlar va innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish ishlarini yanada takomillashtirishga xizmat qilgan;

Yangi O'zbekistonda urbanizatsiyani rivojlantirish konsepsiyasining milliy-madaniy taraqqiyotga paradigmatal ta'siri, innovatsion mohiyati va hududlarni kompleks rivojlantirishdagi ahamiyati borasidagi ilmiy yangiliklar, nazariy xulosalar, metodologik xulosalar hamda amaliy takliflardan O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan KA-3-007-raqamli "O'zbekistonda fan va ta'lim integratsiyalashuvi jarayonining ijtimoiy, ma'naviy-ahloqiy, konseptual falsafiy muammolar tahlili" (2020-2021 yy) mavzusidagi amaliy tadqiqot loyiha doirasida belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanilgan (Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universitetining 2022 yil 1 dekabrdagi 04/11-7756-son ma'lumotnomasi). Natijada, amaliy loyihani yanada takomillashtirishga va keng jamoatchilikka O'zbekistonda shahar madaniyatini rivojlantirish borasidagi milliy-

madaniy tajribalarning retrospektiv shakllanish va to'planish xususiyatlarini tahlil qilishga xizmat qilgan;

“Obod mahalla”, “Obod qishloq”, “Yangi Namangan”, “Yangi Andijon” va “Yangi O'zbekiston” massivlarining urbanizatsion rivojlanishga hamda aglomeratsiyalarni shakllantirish mamlakatni sivilizatsion va urbanizatsion yuksaltirish, uni ijtimoiy-madaniy rivojlanishning drayveriga aylantirish, keng qamrovli (siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, ma'rifiy, qurilish, servis) kabi kompleks chora-tadbirlarning gumanistik va ratsional taraqqiyot asoslariga oid ilmiy va amaliy tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirligini 2023 yilga mo'ljallangan dasturlar bo'yicha loyihalarini, keng ko'lamli bunyodkorlik, qurilish, ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari talab etiladigan muammolar mavjud “og'ir” toifali deb topilgan 1071 ta mahallalarda mahallalarni infratuzilmasi, aholini ijtimoiy holati, yashash sharoiti va boshqa muammolarni o'rganish hamda mahallalarda obodonlashtirish, qurilish va bunyodkorlik ishlarini amalga oshirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirligining 2022 yil 5 dekabrda 04-02/967-son ma'lumotnomasi). Natijada, qishloq turmush darajasini yuksaltirish orqali unga shahar madaniyatini, urbanizatsiyani olib kirish, urbanizatsion rivojlanishga, mahallalarning infratuzilmasi, aholini ijtimoiy holati, yashash sharoiti kabi muammolarni bartaraf qilishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 7 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot natijalari bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta ilmiy maqola (5 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 143 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, dissertatsiya bajarilgan muassasa ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti, predmeti va usullari keltirilgan. Shuningdek, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy-amaliy ahamiyati tavsiflangan.

Tadqiqotning birinchi bobi “**Urbanizatsiya ilmiy va ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar ob'ekti sifatida**” deb nomlangan. Ushbu bobda “urbanizatsiya” tushunchasining ilmiy talqinlari, ularning ijtimoiy-falsafiy jihatlari, mohiyati va shaharga taalluqli voqelik sifatida talqin qilinishi ochib berilgan.

Dissertant fikricha, “Shahar madaniyati” degan tushuncha esa uning bir jihatidir. Shaharga taalluqli narsalar va atributlarning uning chegarasidan tashqariga tarqalishi, yoyilishi urbanizatsiyani anglatadi. Mazkur ta’rif “shahar” va “shahardan tashqari” yoki “qishloq” degan tushunchalarni keltirib chiqaradi. Hududiy chegaralanishni urbanizatsiyaning muhim belgisiga aylantirilishi va shahar madaniyatini qishloq hayotidan farqlanishi faqat hudud bilan belgilanmasligi haqida ham fikr yuritiladi.

Tadqiqotga ko‘ra, ular o‘rtasida “oralik zona”lar, ya’ni aglomeratsiyalar, “gibrid madaniyat”, tumanlar borligini unutib bo‘lmaydi. Tumanlar hududiy belgilariga ega bo‘lsa-da, ijtimoiy-madaniy hayot nuqtai-nazaridan shahar madaniyati va hayotiga intiluvchi, iste’mol mahsulotlarini esa qishloqdan olishga odatlangan ijtimoiy makondir. Tumanlarda agromadaniyatga moyillik sezilib turadi. Shuning uchun urbanizatsiya jarayonlarini shahar-tuman qishloq tizimi (kesimi)da qarash o‘rinlidir. Ba’zan tadqiqotchilar urbanizatsiyaning jug‘rofiy belgilarini mutlaqlashtirishga intilishadi. Shahar landshaftini asosiy ko‘rsatkich qilib olgan tarzda, uni qishloq uchun namuna, taraqqiyot modeli sifatida talqin etishadi⁵. Insonning shahar muhitida siqilib qolishi va tabiatdan uzoqligi sababli ruhiyatida paydo bo‘ladigan salbiy kechinmalar jug‘rofiy-tabiiy omillarning ahamiyatini oshirishi ta’kidlanadi.

Dissertatsiyada urbanizatsiya tufayli shaharlarda avj olgan sun’iy muhitni yaratish an’anasi insonga nafaqat qulay shart-sharoitlarni shakllantirilishi, vaqtni tejashi va og‘ir mehnatdan xalos qilish, shu bilan birga, unda tabiatga yaqinlik instinktini ham uyg‘otishi tahlil etilgan. “Urbanizatsiya” tushunchasini mohiyatan boyitib keluvchi “landshaft”, “shahar brendi”, “novator shahar”, “gigantograd”, “siti”, “utopik shahar”, “ideal shahar” kabi atamalar va iboralar ham mavjudligi tadqiq etilgan. Shahar estetikasini bugun landshaftsiz tasavvur etib bo‘lmaydi, uning alohida san’at turiga aylantirilgani esa urbanizatsiya talablarining natijasidir, deyish mumkin. “Shahar brendi” esa har bir shaharning betakrorligini badiiy simbolik ifodasi hisoblanadi. Uni ma’lum bir badiiy obrazlar va belgilarda ifodalash shaharning, ayniqsa, xorijiy sayohlar uchun, urbanizatsion maftunkorligini oshiradi.

“Siti”lar barpo etish G‘arbga taqlid qilish bo‘lsa-da, ularda zamonaviylik, urbanizatsion rivojlanish, submadaniyat yaratishga intilish borligini sezmaslik mumkin emas. Gigantograd poytaxt yoki yirik shaharlar intilayotgan urbanizatsion rivojlanish modeli bo‘lib qolmoqda. Shaharlar va sitilarning bunday yiriklashuvi ularga chekka hududlardan aholining oqib kelishini tezlashtiradi. Dissertant yuqoridagi fikr mulohazalardan kelib chiqib, urbanizatsiyaga quyidagicha ta’rif berib o‘tadi. *“Urbanizatsiya (shahar madaniyati) insonning ijtimoiy-madaniy shakllanishi va rivojlanishini, aholining moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini to‘la qondirishga qaratilgan aglomeratsiyalarni, shart-sharoitlar, imkoniyatlar va infratuzilmani o‘z ichiga oluvchi makondir”*.

⁵ Qarang: Заборова Е.Н. Социологический анализ городского социального пространства. Монография. - Екатеринбург: ЕГУ, 1996; Ковалевский А.А. Объективация негативных переживаний человека в пространстве города// Гуманитарные исследования, 2016, - №2 (11). - С. 25- 28.

Tadqiqotda urbanizatsiya inson ijtimoiy-madaniy faoliyati va izlanishlarining mahsuli ekanligi qayd etiladi. Yaratilgan ijtimoiy-madaniy muhit va boyliklar urbanizatsiyaga borib taqaladi yoki urbanizatsion muhitni shakllantiradi. Mutaxassislar urbanizatsiyani bejiz “shahar madaniyati” deb ham atashmaydi. Bu bilan ular urbanizatsiyaning yadrosini, o‘zagini madaniyat, madaniy boyliklar, insonning ijtimoiy muhitni madaniylashtirishga yo‘naltirilgan faoliyati tashkil etishini bildirishadi⁶.

Dissertatsiyada madaniyatning gumanistik xususiyatlariga ham urg‘u beriladi. Bu o‘z navbatida, urbanizatsiyani ham gumanistik bo‘lishga undaydi. Barpo etilayotgan shaharlar, inshootlar, infratuzilmalar va yo‘llar insonga xizmat qilishi kerak. To‘g‘ri, ular inson tomonidan yaratiladi, barpo etiladi, inson esa o‘ziga dushman bo‘lgan narsani yaratishi mumkin emas. Ming afsuski, ba‘zan anglanmagan va utilitar maqsadlarga qurilgan narsalar, ayniqsa, shaharlar atrofiga katta suv omborlarining yoki AES qurilishi, aholi turar joylari ustidan yuqori voltli elektr simlar tortilishi kabi ko‘p holatlar mavjudki, ular gumanistik maqsadlardan yiroq. Demak, shaharlarda inson manfaatlariga zid ob‘ektlar ham tiklanishi uchraydi. Masalan, AES shaharni zarur elektr energiyasi bilan ta‘minlash muammosini yechishga yordam beradi, biroq u xavfsizlik muammosini ham yuzaga keltiradi. AES xavfsiz ishlashini ta‘minlash nihoyatda katta mablag‘ni talab etadi va yon-atrofdagi shaharlar, aholi doim xavf ostida yashaydi. Shuning uchun loyihalashtirishda urbanizatsiyaning emas, balki insonning sog‘-salomat va farovon, baxtli yashashini ta‘minlashdan kelib chiqish maqsadga muvofiqdir⁷.

Urbanizatsiyaning gumanistik funksiyasi inson manfaatlariga xizmat qilishni asosiy maqsad qilib qo‘yadi. Ba‘zan gigantogradlar yaratish, barpo etish o‘yi gumanistik maqsadlardan yiroq bo‘ladi. Gigantogradlarni to‘ldirish, ulardan to‘la foydalanish har doim ham oddiy kishiga, insonga xizmat qilavermaydi, balki, aksincha, uning xo‘jaligiga “ortiqcha yuk” bo‘ladi. Kommunal va madaniy-maishiy xizmatlar tizimi yetarli shakllantirilmagan, issiq, hatto sovuq suv bilan ta‘minlash muammo bo‘lgan makonda gigantograd barpo etish ratsional va gumanistik yondashuv emas.

Dissertatsiyaning ikkinchi **“Shahar urbanizatsiyasi: xorijiy va mintaqaviy tajribalarning ijtimoiy-falsafiy tahlili”** deb nomlangan bobida, shahar urbanizatsiyasining xorijiy va mintaqaviy (regional) tajribalari tadqiq etilgan. Jahon tajribasini o‘rganish nafaqat empirik manbalarni to‘plash, shu bilan birga, urbanizatsion rivojlanish siyosatini shakllantirayotgan va mamlakat ijtimoiy-madaniy taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘tarayotgan Yangi O‘zbekiston uchun ham zarurdir. Aynan shuning uchun ham ushbu bobda AQSh, Yevropa davlatlari va Osiyo mintaqasidagi urbanizatsion rivojlanish tajribalari o‘rganilgan, ulardagi muhim jihatlar ochib berilgan.

Butun Yevropa san‘ati, arxitekturasi va shaharsozligidagi betakrorlik, o‘ziga xoslik ommaga xizmat qilishni nazarda tutmagan. Omma ushbu san‘at, madaniyat va urbanizatsiya negizidan ijtimoiy borlig‘i uchun mohiyat izlab o‘tirmagan, unga

⁶ Qarang: Уилсон Бен. Метрополис. Город как величайшее достижение цивилизации. -Москва: “Литрес”, 2022; Urban world : Mapping the economic power of cities. MsKincey Global Institute Report. March 2011.

⁷ Qarang: Посохин М. Город для человека. -Москва: Прогресс, 1980. - С.6-9

ushbu borliqni (saroylar, ibodatxonalar, cherkovlar, indulgentsiya qabulxonalari, sajdaga chorlovchi ratush qo'ng'iroqlari) ko'z oldida turgani yetarli edi. Buni "ibtidoiy tasavvurlarning davomi" deyish mumkin, chunki omma o'zining hayoti va mavjudligini yetarli anglab yetmagan, o'z irodasi va kuchlarini ana shu zodagonlar huzuriga sarflayotgani uning tasavvuriga ham kirmagan. Buning uchun ijtimoiy-siyosiy tafakkur yangi bosqichga o'tishi, hukmron sinf vakillari va tarafdorlari bo'lgan ijodkorlar izlanishlaridan mohiyat izlovchi mutlaq yangi, inqilobiy ta'limot kerak edi. Yaratilgan yangi shaharlar, portlar, savdo-sotiq markazlari, mahobatli cherkovlar, saroy ayonlarining dabdabali uylari, sayrgohlari va mehmonxonalari, ularning mavjudligi va qurilganligi nuqtai-nazaridan emas, balki kimga va nimaga xizmat qilishi kerakligini ochiq aytadigan ta'limot kerak edi. Nima uchun aholining aksariyati qadrdon qishlog'i, tumani, qavmini tashlab shaharga intilgan? Nega u qishloqdagi uyidan ham ajralib, shahar zodagonlariga ham qo'shilolmay, proletariatga aylangan? Bunday proletariat, A.Toynbi iqroriga ko'ra, butun Yevropani chulg'ab olgan, uning sivilizatsiyasiga oid ayanchli sahifasi sifatida saqlanib qolgan⁸.

Tadqiqotda AQSh va G'arbiy Yevropa qit'asidagi sivilizatsion va urbanizatsion rivojlanish alohida paradigmaga asoslanishi ta'kidlangan. Ular o'zining serharakatchanlik, ishbilarmonlik, pragmatik merosiga tayanadi, insondagi intellektual imkoniyatlarni va kreativ izlanishlarga intilishini qo'llab-quvvatlashining samarali mexanizmlarini yaratgan. G'arb shahar madaniyatidagi maftunkorlik ham, avvalo, inson omiliga bo'lgan ishonchdadir. Ayniqsa, Renessans davrida Italiya dunyodagi eng kitobxon, badiiy adabiyoti rivojlangan davlatga aylangan. Erkaklarning uchdan biri, ayollarning sezilarli qismi kitob o'qishni bilgan. Shahar davlat va kommunalar o'zining siyosiy mustaqilligi, urbanizatsiyasi va madaniyati bilan Yevropa (Frantsiya va Buyuk Britaniya)dan farq qilgan⁹.

XVI asrga kelib Janubiy Amerikaning kashf qilinishi, Afrika va Hindistonga suv yo'llarining ochilishi Niderlandiya, Portugaliya va boshqa Yevropa davlatlarining rivojlanishini tezlashtirib yubordi. Natijada Italiya madaniyati va urbanizatsiyasi Uyg'onish g'oyasi ta'sirida, butun Yevropaga tarqaldiki, unda shaharlar, savdo-sotiq, hunarmandchilik, aholi sonining oshib borishi va shaharlarga ko'chishi, farovon va badavlat yashashga intilish ommaviy, mintaqaviy xususiyat kasb etdi. Yevropa mintaqasi o'z faoliyatini madaniy boyliklarni qo'lga kiritish, moliyaviy aloqalar orqali xizmatlar turlarini kengaytirish, ma'rifatni, ixtironi va kashfiyotlarni e'zozlash, yangi-yangi yerlarni o'zlashtirishga kirishdi. Shaxsiy ishchanlik, beorom izlanish, tinmay takomillik qidirish, ijtimoiy-madaniy taraqqiyotda o'z izini qoldirish istagi yevropaliklarning hayot tarziga aylandi. Ular XVI asrdan boshlab sayyohlik katta boylik keltirishini, shu sababli yangi yerlarni ochish orqali sharaf-shon topish imkoni ekanini bildilar.

⁸ Qarang: Тойнби А. Постигание истории. -Москва: Прогресс, 1991. - С.5-6

⁹ Qarang: История Рима. Коллектив авторов. -Москва: Просвещение, 1978. - С. 87-143; Брагина Л. Итальянский гуманизм эпохи Возрождения. 2 е изд. -Москва: Юрайт, 2018. - С.72.

Tadqiqotda Sharq xalqlaridagi urbanizatsion rivojlanishning milliy-jug‘rofiy xususiyatlari, zamonaviy hayot tarzini shakllantirishga qaratilgan tajribalari umumlashtirilganligi tahlil etilgan. Sharq xalqlari urbanizatsiyasi:

birinchidan, uzoq tarixiy-madaniy tajribasiga tayanadi. Hatto modernga moyil Singapur, Gonkong, Qatar va Saudiya Arabistoni ham o‘zining ushbu tajribasidan mutlaq voz kechgan emas. G‘arb urbanizatsiyasi esa radikal o‘zgarishga moyil.

ikkinchidan, G‘arbda urbanizatsiya ilmiy-texnik taraqqiyot mahsuli sifatida keladi, Sharq halqlarida esa ma‘naviy voqelik sifatida idrok etish ustun.

uchinchidan, Sharq urbanizatsiyasi o‘zini asrash, identligini yo‘qotmaslik, bu borada, agar lozim topsa, chet ta‘sirini chegaralashga intilishgan. Undagi multikulturizm ana shu yondashuv doirasidadir.

Qadimgi Xitoy sivilizatsiyasining yuzaga kelganiga 6 ming yildan oshgan, shuning uchun ham mutaxassislar uni “dunyodagi eng qadimgi madaniyat o‘chog‘i” deb atashadi. Gonkongning mavjudligi haqidagi manba er. avv. 1 ming yilliklarga borib taqaladi. U orol bo‘lsa-da, Xitoy sivilizatsiyasi ta‘sirida edi. Xitoyda ekin maydonlari kam, lekin dehqonchilik asosiy ijtimoiy faoliyat turi hisoblangan. Hatto qo‘shinlar ham bug‘doy ekish va o‘rish bilan band bo‘lishgan¹⁰. Keyingi yillarda Xitoy hukumati urbanizatsion rivojlanishga katta e‘tibor bermoqda, bu borada maxsus davlat dasturlari, strategiyasi qabul qilingan. Ularga muvofiq, keyingi 20 yil ichida qishloqdan shaharga 300 milliondan ziyod kishi ko‘chirilgan. Bu jahon tarixida deyarli uchramaydigan hodisa. Ammo hanzu qishloq joylarida 0,5 milliard aholi yashamoqda. Vaholanki, Xitoy aholisini qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta‘minlash uchun 100 million dehqon yetarlidir¹¹.

Gonkongda uy-joy narxi dunyoda eng yuqori. Shahar ko‘p qavatli binolar qurishda yetakchi o‘rinlardan birida turadi. Ishbilarmonlik muhiti, chet ellik turistlar oqimiga xizmatlar uyushtirish, shahar infratuzilmasini yangilab, modernizatsiyalab turish, aholining turar joylarga oshib borayotgan talablarini hisobga olgan tarzda 2018 yili Lantau Vision Tomorrow dasturi ishga tushirilgan. Unga muvofiq 1 ming gektar yerga 260 ming turar joylari quriladi. Ba‘zi mutaxassislar buni yon-atrofga ekologik xavf soluvchi loyiha deb atashadi¹². Undan ko‘ra yer osti imkoniyatlaridan, podvallardan foydalanishni ma‘qul ko‘rishadi.

Tadqiqotchi qayd etishicha, Amerika Qo‘shma Shtatlarining yuqori darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi undagi urbanizatsiyani ham eng yuqori darajaga ko‘targan. AQSh urbanizatsiya bo‘yicha dunyoda 36 o‘rinda turadi va bu tajriba alohida o‘rganishga loyiqdir. AQSh urbanizatsiyasi Yevropa, aniqrog‘i ingliz madaniyati asosiga qurilgan. Keyinchalik, bu urbanizatsiyani mutlaqlashtirishga, uni mutlaq yangi, zamonaviy voqelik sifatida talqin etishlar

¹⁰ Qarang: История китайской философии. -Москва: “Прогресс”, 1981. - С.24-26.

¹¹ Люди и возможности в мире с населением 7 миллиардов. / State of world population 2011. Доклад. Народонаселение мира в 2011 году. – ЮНФПА /Педрю Сан да Байдейра. // https://mexico.unfpa.org/sites/default/files/pub-pdf/RU-SWOP2011_1.pdf

¹² Development chief defends cost of artificial islands. // <https://news.rthk.hk/rthk/en/component/k2/1681796-20221229.htm?>

ham uchrasa-da, AQSh urbanizatsiya va sivilizatsiyasi Yevropa merosiga asoslanishini inkor qilib bo'lmaydi.

Ijtimoiy-iqtisodiy o'sishsiz sivilizatsiya ham, urbanizatsiya ham yo'q. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan milliy daromadning o'sish dinamikasi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini ifodalaydi. Mamlakat megapolislardagi eng muhim jihat ishchanlik muhitining mavjudligidir. Kishilar ishlashni hayoti ma'nosini, izlanishni umr mazmuniga aylantirib, o'zi uchun zarur imkoniyatlarni, farovonlik va baxtiyorlikni shakllantirishi mumkin. Pragmatizm g'oyasi negizida faqat ishchanlikgina emas, balki qilgan mehnatiga yarasha haq olish, naf ko'rish, boylik orttirish ham yotadi. Shaxsning boylik orttirishga bo'lgan instinkti pragmatizm tarzida qo'llab-quvvatlangan. Umuman, ishchanlik va tadbirkorlik, pragmatizm amerikaliklar ongida milliy g'oya sifatida shakllanganini hozirgi ijodkorlar, ishchanlik tarafdorlari, ijtimoiy fikr qo'llab-quvvatlaydi¹³.

Amerika sivilizatsiyasi va urbanizatsiyasi masalalari bilan shug'ullangan olimlar amerikaliklar madaniyati, turmush tarzi, tafakkuri, iqtisodiy hayoti haqida ijtimoiy falsafa uchun muhim fikrlarni, g'oyalarni bildirishgan. Ularning kontseptual qarashlari bir biridan farq qiladi, lekin ular umumiy amerikacha milliy g'oyani va globallashuv tomon borayotgan dunyoda Amerika sivilizatsiyasining yetakchilik o'rnini qo'llab-quvvatlashga moyildirlar¹⁴. Shu bilan birga Amerika sivilizatsiyasi va urbanizatsiyasini ijtimoiy-iqtisodiy yutuqlar va muammolarsiz qarash mumkin emas, albatta. Undagi multikulturalizm va migratsiyalar shunchalik rang-barangki, ba'zan ularning umumijtimoiy makondagi o'rnini anglash, topish qiyin. Urbanizatsiya ko'rsatkichlari har doim ham ushbu makondagi jarayonlar va o'zgarishlarni ifoda etavermaydi. Ammo uning maftunkorligi demokratiya, biznes va tadbirkorlik, multikulturalizm uyg'unligi, shuningdek, jamiyatda qaror topgan umumijtimoiy normalar, qadriyatlar va "o'zaro ishonch" natijasi hamdir. Demak, urbanizatsiya fakat aglomeratsiya va migratsiya ta'siridan iborat emas, u rang-barang siyosiy, iqtisodiy va madaniy omillarga ham tayanadi. Shu bilan birga, uning tashqi siyosatida yoshlarni, ayniqsa, yuqori intellektga ega kishilarni o'ziga jalb etish ustun turadi. Bu ijtimoiy-demografik, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy rivojlanish muammolarini ham hal etishga yordam bermoqda

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **"Yangi O'zbekistonda urbanizatsiyani rivojlantirish kontseptsiyasi: milliy-madaniy tajribalar, muammolar va ularning yechimlari"** deb nomlangan. Mazkur bobda O'zbekistonda shahar madaniyatini rivojlantirish borasidagi milliy-madaniy tajribalarning retrospektiv shakllanish va to'planish xususiyatlari, Yangi O'zbekistonda urbanizatsion taraqqiyot konsepsiyasining ijtimoiy-falsafiy ahamiyati, bu boradagi muammolar tadqiq etilgan.

"Urbanizatsiya" so'zining ma'nosi shahar madaniyati va shahar turmush tarzining qishloq joylariga tarqalishi, shahardan tashqari aholining shahar qadriyatlariga, qarashlari va infratuzilmasiga moslashishi jarayonlarini anglatadi¹⁵. Aglomeratsiya bilan bog'liq muammolar ushbu shahar madaniyatidagi boshqa

¹³ Шефер Б. Законы победителей. 2-е изд. -Минск: "Попурри", 2019. - С. 8.

¹⁴ Qarang: Тоффлер Э. Метаморфозы власти. -Москва: АСТ, 2004. - С.6-7.

¹⁵. Qarang: Ю.А. Современная урбанизация, основные тенденции расселения. -Москва: Статистика, 2006.

hududlarni o'ziga jalb etayotgan jihatlar ekanini barcha tadqiqotchilar yakdil ta'kidlashadi¹⁶. Shu bilan birga, ba'zi tadqiqotchilar urbanizatsiyaning ijtimoiy-jo'g'rofiy muhit, etnomadaniy jarayonlar, tarixiy madaniy rivojlanish kompleksi sifatida qarashga moyildirlar¹⁷. Boshqa bir tadqiqotchilar urbanizatsiyani global o'zgarishlar, modernizatsiyani global o'zgarishlar modernizatsiya jarayonlari bilan bog'lashadi. Ularning fikricha, jahonda va halqlar hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlar avvalo urbonizatsiya o'z ifodasini topadi¹⁸.

Tadqiqotchi fikricha, biz urbanizatsiyani qaysi tomondan o'rganmaylik shahar madaniyati fenomeniga duch kelamiz va uning jamiyat hayotiga, ijtimoiy taraqqiyotiga, ta'sirini kuzatamiz. Urbanistikaning alohida ilm sohasi sifatida o'rganilayotgani shahar madaniyatining ilmiy nazariy jihatlarini bildiradi.

Arxeologik manbalar va milliy-madaniy tajribalar O'zbekiston hududida ilk shaharlar va aholi punktlari er.avv. bir minginchi yillarga borib taqalishini ko'rsatmoqda. Mazkur shaharlar paydo bo'lishining o'z xususiyatlar, qonuniyatlari bor. Ularga o'troq yashash, suv bo'ylariga joylashish, tabiiy sug'orish imkoniyatlari bor yerlarga joylashish kabilar kiradi. O'zbekistondagi ijtimoiy-jo'g'rofiy muhit shahar joylarini tanlashga undagan, bunda, eng avvalo, yashash uchun zarur mahsulotlarni topish yoki yetishtirish imkoniyati bor yerlar, makonlar nazarda tutilgan, albatta.

